

**2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan
chora-tadbirlar ijrosi to’g’risida**

TAHLILY-MA’LUMOT

2022 yil 26 aprel holatiga

T/r	Amalga oshiriladigan tadbir	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan loyihalar (kimga qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
1.	<p>“Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimini ishga tushirishni nazarda tutuvchi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. <i>(Farmoning 16.3-bandi)</i></p>	2022 yil aprel	Ichki ishlar vazirligi <i>(P.Bobojonov),</i> Moliya vazirligi <i>(T.Ishmetov),</i> Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi <i>(N.Xusanov)</i>	<p>Bajarilmogda.</p> <p>Farmoning 16.3-bandi ijrosini ta’minalash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o’tab bo’lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko’maklashish bo’yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimini joriy etish to’g’risida” qarori loyihasi manfaatdor vazirlilik va idoralar bilan kelishilib, huquqiy xulosa olish uchun 2022 yil 13 apreldagi 40/269-son xat bilan Adliya vazirligiga kiritilib, 2022 yil 21 aprelda 3/1-0330-son huquqiy xulosa olingan.</p> <p>Mazkur loyiha vazirlilik va idoralarning taklif va mulohazalari asosida qayta ko’rib chiqilib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o’tab bo’lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko’maklashish bo’yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimini joriy etish to’g’risida” qarori loyihasi sifatida qayta ishlab chiqilib, 2022 yil 25 apreldagi 40/291-son xat bilan Adliya vazirligiga qaytadan kelishish uchun kiritilgan (58075).</p>
2.	<p>Rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda yo’l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo’llarda avariya va o’lim holatlarini qisqartirish bo’yicha dastur loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>Bunda, yo’l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, harakatni boshqarish tizimini to’liq raqamlashtirish, yo’llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilarga munosib sharoitlarni yaratish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minalashga hamda “Ochiq byudjet” axborot portalini orqali yo’naltiriladigan mablag’lardan aynan mazkur yo’nalishda samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratish.</p> <p><i>(Farmoning 17-bandi)</i></p>	2022 yil aprel	Ichki ishlar vazirligi <i>(P.Bobojonov),</i> Transport vazirligi <i>(I.Maxkamov),</i> Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	<p>Bajarilgan.</p> <p>Mazkur band ijrosini ta’minalash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining “2022-2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo’jallangan “Xavfsiz va ravon yo’l” umummilliy dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 21 aprel kuni 1/692-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan (59557).</p> <p>Shuningdek, mazkur band ijrosini ta’minalash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan O’zbekiston Respublikasining “Yo’l harakatini tashkil etish to’g’risida”gi Qonuni loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 31 yanvarda 1/184-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (52306).</p> <p>Shu bilan birga, mazkur bandning ijrosini ta’minalash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan O’zbekiston Respublikasining Prezidentining “Yo’l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 31 yanvarda 1/170-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (54258).</p>